

## KARDIOLOGIK TERMINLARNING LOTIN-YUNON ETIMOLOGIK TAHLILI

Xakimova Feruzaxon Xatamjon qizi

CAMU Xalqaro tibbiyot universiteti o'qituvchisi

O'ktamova Dilafro'z Hojiakbar qizi

CAMU Xalqaro tibbiyot universiteti 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20569906>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kardiologiyaga oid terminlarning lotin va yunon tillari asosida shakllanishi, ularning etimologik va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. *Cardiologia*, *myocardium*, *tachycardia*, *endocarditis* kabi terminlarning tarkibi va ma'nosi izohlanadi. Shuningdek, lotin-yunon morfemalarini bilish tibbiyot talabalariga klinik fanlarni o'zlashtirish, tibbiy hujjatlar bilan ishlash va kasbiy tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** kardiologiya, lotin tili, yunon tili, etimologiya, tibbiy terminologiya, yurak-qon tomir tizimi, morfema, klinik termin, kasbiy nutq.

### Kirish

Zamonaviy tibbiyotda terminologik aniqlik muhim ahamiyatga ega, chunki tibbiy tushunchalarning noto'g'ri talqini tashxis va davolash jarayonida xatolarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, kardiologiya va angiologiyada terminlarning aniq va bir ma'noli qo'llanishi zarurdir. Kardiologik terminologiya yurak tuzilishi, qon aylanishi, ritm buzilishlari va tomir patologiyalarini ifodalovchi murakkab tizim bo'lib, uning asosiy qismi lotin va yunon tillariga borib taqaladi. Bu terminlarning xalqaro barqarorligi va ilmiy aniqligini ta'minlaydi. Lotin-yunon morfemalarini bilish terminlarning mazmunini anglashga yordam beradi. Masalan, *tachycardia* terminidagi *tachy-* “tez”, *cardia* esa “yurak”, *bradycardia* dagi *brady-* esa “sekin” ma'nosini bildiradi.

### Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Kardiologik terminlarni ilmiy jihatdan tahlil qilishda avvalo “termin” tushunchasining mohiyatini belgilash zarur. D.S. Lotte termini ma'lum bir maxsus sohada aniq tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi sifatida izohlaydi. Shu yondashuvdan kelib chiqib, kardiologik terminlar yurak va qon-tomir tizimiga oid maxsus tibbiy tushunchalarni ifodalovchi birliklar majmuasi sifatida qaraladi [2:18].

V.V. Danilenko terminlarni aniqlashda maxsus lug'atlar, ma'lumotnomalar va tavsiya etilgan atamalar to'plamiga tayanish zarurligini ta'kidlaydi [3:15]. A.A. Reformatskiy esa terminning haqiqiy mazmuni ko'pincha maxsus ilmiy kontekstda to'liq ochilishini qayd etadi [4:110–111]. Demak, kardiologik terminlarni o'rganishda faqat lug'aviy izoh bilan cheklanib qolmasdan, ularning klinik matnlar, ilmiy maqolalar va o'quv adabiyotlaridagi qo'llanishini ham tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

T.A. Kudinovanning fikriga ko'ra, zamonaviy ilmiy matnlarda yakka so'z shaklidagi terminlarga nisbatan ko'p komponentli terminologik birliklarning roli ortib bormoqda [5:58]. Bu holat kardiologiya terminologiyasida ham aniq kuzatiladi. Masalan, *infarctus myocardi*, *stenosis valvae mitralis*, *insufficiencia cordis*, *hypertrophia ventriculi sinistri* kabi terminlar alohida so'zlardan iborat oddiy birikmalar emas, balki bitta murakkab klinik tushunchani ifodalovchi terminologik birliklardir.

Abrayeva Sh.E. kardiologik terminologiyani o'rganish jarayonida terminlarning shakllanishi, tarjimai va o'zbek tiliga moslashuvini alohida tahlil qiladi. Muallif tibbiy atamalarning lotin va

yunon tillariga borib taqaluvchi etimologiyasi, ularning o‘zbek tilida qo‘llanishi hamda tarjima jarayonidagi murakkabliklariga e‘tibor qaratadi [6:157].

Akmurodov Z.Sh. lotin terminologiyasining kardiologiya va angiologiyadagi o‘rnini tahlil qilib, uning professional tibbiy tilning asosiy tayanchi ekanini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, lotin terminlari yurak va tomirlar tuzilishini, patologik holatlarni, diagnostik jarayonlarni aniq hamda bir ma’noli ifodalash imkonini beradi [1:361–362].

I.C. Frînculescu kardiovaskulyar terminologiyada grek-lotin ildizlarning alohida o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Tadqiqotchining yondashuviga ko‘ra, yurak-qon tomir tizimiga oid ko‘plab terminlarning semantik mazmuni ularning etimologik tarkibini tahlil qilish orqali ochiladi [7:253–259].

Shunday qilib, kardiologik terminologiyani ilmiy jihatdan o‘rganish bir necha nazariy yondashuvlar kesishmasida amalga oshiriladi. Avvalo, termin maxsus soha tushunchasini aniq ifodalovchi birlik sifatida qaraladi va kardiologik terminlar yurak-qon tomir tizimiga oid kasbiy tushunchalarni nomlovchi tibbiy birliklar majmuasini tashkil etadi. Terminlarni tahlil qilishda ularning faqat lug‘aviy ma’nosiga emas, balki maxsus ilmiy va klinik kontekstdagi qo‘llanishiga ham e‘tibor qaratish zarur. Chunki kardiologik terminlarning mazmuni ko‘pincha ularning amaliy tibbiy matnlardagi vazifasi orqali to‘liq ochiladi. Shuningdek, zamonaviy kardiologik terminologiyada ko‘p komponentli birliklarning faol qo‘llanishi bu soha terminlarini struktur-semantik jihatdan tahlil qilish zaruratini kuchaytiradi. Lotin va yunon tillariga borib taqaluvchi etimologik asoslar esa kardiologik terminlarning xalqaro, barqaror va tizimli xarakterini belgilaydi. Demak, kardiologik terminlarni o‘rganishda terminologik, etimologik, struktur-semantik va kontekstual yondashuvlarni uyg‘un qo‘llash ilmiy jihatdan asosli natija beradi.

### **Kardiologik terminlarning lotin-yunon etimologik tarkibi**

Kardiologik terminlarning aksariyati grek-lotin morfemalari asosida shakllangan. Bunday terminlarda ildiz, prefiks va suffikslar alohida semantik vazifani bajaradi. Shu sababli termini qismlarga ajratish orqali uning umumiy ma’nosini aniqlash mumkin. Masalan, *cardiologia* termini yunoncha *kardia* — “yurak” va *logos* — “ta’limot, fan” birliklari asosida hosil bo‘lgan bo‘lib, “yurak haqidagi fan” ma’nosini bildiradi [1:364]. *Myocardium* termini esa *myo-* — “mushak” va *cardium* — “yurakka oid qavat” qismlaridan tuzilib, yurak mushak qavatini anglatadi [6:158]. *Endocardium* tarkibidagi *endo-* ichki joylashuvni bildiradi, *pericardium* tarkibidagi *peri-* esa “atrofida” ma’nosini ifodalaydi.

Kardiologik terminlar tarkibida *cardi-/card-* — yurak, *myo-* — mushak, *angio-* — tomir, *arterio-* — arteriya, *veno-/phlebo-* — vena, *tachy-* — tez, *brady-* — sekin, *endo-* — ichki, *peri-* — atrofida, *-itis* — yallig‘lanish, *-osis* — patologik holat yoki jarayon, *-graphia* — yozib olish yoki tekshirish, *-algia* — og‘riq kabi morfemalar faol qo‘llanadi. Masalan, *endocarditis* termini *endo-* — “ichki”, *card-* — “yurak”, *-itis* — “yallig‘lanish” qismlaridan tashkil topgan bo‘lib, yurak ichki qavatining yallig‘lanishini bildiradi. *Tachycardia* yurak urishining tezlashuvini, *bradycardia* esa yurak ritmining sekinlashuvini anglatadi. Bu holat kardiologik terminlarning tasodifiy emas, balki muayyan so‘z yasaliş qonuniyatlari asosida shakllanganini ko‘rsatadi. Har bir morfema termin tarkibida ma’lum ma’no yukini olib keladi. Shuning uchun lotin-yunon morfemalarini bilish yangi terminlarni tushunish va izohlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

### **Angiologik terminlarning kardiologik terminologiya bilan bog‘liqligi**

Kardiologik terminologiyani tahlil qilishda angiologik terminlarni ham chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Chunki yurak faoliyati qon-tomir tizimi bilan uzviy bog‘liq. Angiologiya qon va limfa tomirlarini o‘rganuvchi soha bo‘lib, uning asosiy terminlari ham lotin-yunon ildizlariga tayanadi.

Angiologik terminologiyaning asosiy birliklari sifatida *arteria* — arteriya, *vena* — vena, *vas* — tomir, *capillaris* — kapillyar, *circulatio sanguinis* — qon aylanishi kabi birliklar ko'rsatiladi. Mazkur asosiy terminlar negizida *aorta ascendens*, *arcus aortae*, *vena cava superior*, *arteria carotis communis* kabi murakkab anatomik birliklar shakllanadi.

Tomir patologiyalarini ifodalovchi terminlarda ham grek-lotin morfemalari faol ishtirok etadi. Masalan, *thrombosis* — tromboz, *embolismus* — emboliya, *atherosclerosis* — ateroskleroz, *vasculitis* — tomir yallig'lanishi, *aneurysma aortae* — aorta anevrizmasi kabi terminlar muayyan patologik jarayonni bildiradi.

Bu terminlarda *-itis* suffiksi yallig'lanishni, *-osis* esa patologik jarayon yoki surunkali o'zgarishni bildiradi. Demak, kardiologik va angiologik terminlar bir-biridan ajralgan holda emas, balki yagona yurak-qon tomir terminologik tizimi sifatida o'rganilishi kerak.

### **Kardiologik klinik terminlarning struktur-semantik xususiyatlari**

Kardiologik terminlar anatomik nomlardan tashqari kasalliklar, patologik jarayonlar va funksional buzilishlarni ham ifodalaydi. Masalan, *infarctus myocardii* — miokard infarkti, *insufficiencia cordis* — yurak yetishmovchiligi, *stenosis valvae mitralis* — mitral klapan stenoz, *arrhythmia* — yurak ritmi buzilishi kabi terminlar klinik holatlarni bildiradi. Bu birliklarda klinik ma'no aniq ifodalanadi: masalan, *stenosis* torayishni, *valvae mitralis* esa mitral klapaning o'idlikni anglatadi. Kardiologik terminlarning asosiy xususiyati murakkab klinik holatni qisqa va aniq shaklda ifodalashidir. Bu esa tashxis qo'yish, tibbiy hujjatlar yuritish va ilmiy muloqotda qulaylik yaratadi.

### **Kardiologik terminlarni tarjima qilish va o'zbek tiliga moslashtirish**

Kardiologik terminlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda ayrim murakkabliklar uchraydi. Ba'zi terminlar so'zma-so'z tarjimada klinik mazmuni to'liq ifodalamaydi. Masalan, *subendocardial infarction* terminida patologik jarayonning joylashuvi va klinik xususiyati ham izohlanishi zarur. Ko'plab terminlar esa xalqaro shaklda moslashgan holda qo'llanadi: *tachycardia* — taxikardiya, *arrhythmia* — aritmiya, *myocarditis* — miokardit. Kardiologiyada EKG, AMI kabi qisqartmalar ham keng ishlatiladi va ularning to'liq hamda izohli shaklda o'rgatilishi muhimdir. Abrayeva Sh.E. terminlarning ko'p komponentli tuzilishi va tarjima murakkabliklari qo'shimcha metodik yondashuvni talab qilishini ta'kidlaydi [6:158]. Shu sababli tarjimada transliteratsiya, moslashtirish va izohli tarjima usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

### **Tibbiy ta'limda etimologik yondashuvning ahamiyati**

Kardiologik terminologiyani o'zlashtirish tibbiyot talabalari uchun murakkab jarayon hisoblanadi, chunki terminlarning aksariyati ko'p morfemali va klinik mazmunga ega. Etimologik yondashuv terminlarni tarkibiy qismlarga ajratib, ularning ma'nosini anglash imkonini beradi. Masalan, *-itis* — yallig'lanish, *-algia* — og'riq, *endo-* — ichki, *peri-* — atrof ma'nolarini bildiradi. Shu bois lotin terminologiyasi nafaqat nomlash, balki ta'limiy vazifani ham bajaradi va talabalarda klinik tafakkurni rivojlantiradi. Zamonaviy ta'limda Quizlet, Anki, elektron kartochkalar va klinik vaziyatlar asosida o'qitish terminlarni samarali o'zlashtirishga yordam beradi.

### **Tahlil va natijalar**

Tahlillar kardiologik terminologiyaning lotin va yunon tillariga asoslangan xalqaro tizim ekanini ko'rsatadi. Terminlar prefiks, ildiz va suffikslardan tashkil topib, aniq klinik ma'no ifodalaydi. *Cardiologia*, *myocardium*, *tachycardia* kabi terminlar turli tillarda deyarli bir xil qo'llanadi. Ko'p komponentli birliklar murakkab klinik tushunchalarni qisqa shaklda ifodalash imkonini beradi. Lotin terminologiyasi diagnostik aniqlikni ta'minlaydi, etimologik tahlil esa talabalarning kasbiy kompetensiyasi va klinik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kardiologik terminlarning lotin-yunon etimologik tahlili ularning semantik tuzilishi va klinik mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi. Yurak-qon tomir tizimiga oid terminlarning aksariyati qadimgi yunon va lotin tillari asosida shakllangan bo‘lib, bugungi tibbiyot tilida ham barqaror qo‘llanadi.

Lotin terminologiyasi kardiologiyada ilmiy axborotni tartibga solish, klinik tushunchalarni aniqlashtirish va mutaxassislararo muloqotni bir xillashtirishga xizmat qiladi. *Atrium, ventriculus, myocardium, infarctus myocardi, tachycardia* kabi terminlar aniq va xalqaro tushunarli ma’noga ega. Kardiologik terminlarni etimologik va struktur-semantik yondashuv asosida o‘rgatish talabalarning klinik tafakkuri hamda kasbiy kompetensiyasini rivojlantiradi. Shu bois lotin-yunon asoslarini o‘rganish lingvistik va amaliy tibbiyot nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Акмурадов З.Ш., Озода А. Роль латинской терминологии в кардиологии и ангиологии // *Latin American Journal of Education*. — 2026. — Vol. 6, № 5. — P. 361–370. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20173535>.
2. Lotte D.S. *Osnovy postroeniya nauchno-tehnicheskoy terminologii*. — Moskva, 1961. — S. 18.
3. Danilenko V.V. *Russkaya terminologiya: opyt lingvisticheskogo opisaniya*. — Moskva: Nauka, 1977. — S. 15.
4. Reformatskiy A.A. *Vvedenie v yazykovedenie*. — Moskva, 1967. — S. 110–111.
5. Kudinova T.A. *Lingvisticheskie osobennosti mnogokomponentnykh terminov v nauchnom tekste*. — 2001. — S. 58.
6. Abrayeva Sh.E. Kardiologik terminologiyani o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari va metodologiyasi // *Yosh olimlar tibbiyot jurnali*. — 2025. — № 15(09). — B. 157–159.
7. Frînculescu I.C. Greco-Latin Roots Pertaining to Cardiovascular Terminology // *Annals of the University of Craiova. Series Philology. Linguistics*. — Craiova: Editura Universitaria, 2013. — Year XXXV, № 1–2. — P. 253–259.
8. Невзорова С.Г., Махкамова Д.М. Греко-латинские заимствования в терминологии кардиологии // *Вестник хирургии*. — 2023.
9. Szczepanek E., Holda M.K., Klimek-Piotrowska W. Correct Human Cardiac Nomenclature and Its Clinical Significance // *Folia Medica Cracoviensia*. — 2020.
10. Thiene G. Anatomy of Coronary Arteries and Modern Cardiac Terminology // *Frontiers in Cardiovascular Medicine*. — 2021.
11. Medical Terminology for Health Professions. Cardiovascular System Terminology // NCBI Bookshelf. — 2022.